



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776(E) | SJIF 2023: 6.907

Ollaberganova
Sanobar Xamidovna

Urganch davlat universiteti
“Boshlang‘ich ta’lim metodikasi”
kafedrasи dotsenti

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI TA'LIMIDA MUSTAQIL ISHLAR MAZMUNI VA UNI TASHKIL QILISH SHAKLLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida mustaqil ishlarni tashkil qilishning mazmuni va dars jarayonida mustaqil ishlardan foydalanish yo‘llari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, mustaqil ish, tayyorlovchi mustaqil ishlar, yarim mustaqil yoki oraliq mustaqil ishlar, natijasi matnga teng mustaqil ish.

СОДЕРЖАНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ И ФОРМЫ ЕЕ ОРГАНИЗАЦИИ В ОБУЧЕНИИ РОДНОМУ ЯЗЫКУ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация: В данной статье описано содержание организации самостоятельной работы на уроках родного языка в начальных классах и способы использования самостоятельной работы в ходе урока.

Ключевые слова: обучение, самостоятельная работа, подготовительная самостоятельная работа, полусамостоятельная или промежуточная самостоятельная работа, самостоятельная работа с результатом, равным тексту.



CONTENT OF INDEPENDENT WORK AND FORMS OF ITS ORGANIZATION IN PRIMARY SCHOOL NATIVE LANGUAGE EDUCATION

Annotation: This article describes the content of the organization of independent work in the lessons of the native language in primary school and the ways of using independent work in the classroom.

Keywords: training, independent work, preparatory independent work, semi-independent or intermediate independent work, independent work with a result equal to the text.

Kirish. Ma'lumki, barcha o'quv predmetlariga o'xshab ona tili ham maktabda ta'lim jarayonida o'r ganiladi. Ta'lim jarayoni esa bola uchun tilni o'zlashtirishning yangi shart-sharoiti bo'lib, u makon va zamonda yuz beradi. Til ta'limining ma'lum sharoitda - ta'lim jarayonida amal qilishi, uni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishga oid hodisalarini ma'lum darajada osonlashtiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. (Research Methodology). Ona tilidan qanday mashg'ulot bo'lmisin, o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siri ma'lum o'quv materialiga yo'nalgan. O'qituvchi faoliyati (o'qitish), o'quvchilar faoliyati (o'qish), bolalarning real o'quv imkoniyatlariga mos o'quv materiali tilni ta'lim sharoitida o'zlashtirishning barqaror uzvlari sanaladi. Ulardan birontasi qatnashmasa, ta'lim namoyon bo'lmaydi. O'qituvchi o'r ganilayotgan mavzu doirasida o'z bilimlarini tushuntirish yo'li bilan bolalarga ta'sir qilsa, o'quvchilar o'qituvchi tushuntirishini tinglash, savollarga javob izlash, topshiriqlarni bajarish yo'llari bilan unga ta'sir qiladi.

Ikki xil ta'sirning amal qilish natijasi o'laroq, ta'lim ijtimoiy institutining alohida turi sifatida amal qiladi. Bundan ko'rindaniki, ona tili ta'limida mustaqil ishlarning juda katta ahamiyati mavjud.

Hozirgi paytda mustaqil ishlarning quyidagi turlaridan foydalilaniladi:

1. Darslikdagi qoida va ta'riflar ustida mustaqil ish lash:
 - darslikdagi qoida va ta'rifni o'qish va ularga oid dalillarni ajratish;



- o‘qituvchi bergen, o‘qituvchi topshirig‘iga ko‘ra to‘plangan dalillarni tahlil etish va xulosalar chiqarish;
- darslikning ayrim betlarini tanlab o‘qish va shu bilimlardan amaliyotda foydalanish yodlari to‘g‘risida qisqacha hisobot tayyorlash;
- qoida, ta’riflarni mantiqiy qismlarga ajratish va istilohlarga izoh yozish;
- darslik, o‘quv qodlanmalari va qo‘s Shimcha adabiyotlardan o‘rganilgan mavzu doirasida dalil to‘plash;
- ma’ruza, hikoya, suhbat paytida o‘qituvchi chiqargan xulosalarni darslikdagi qoida, ta’rif, aniqliklarga chogdshtirish.

2. Darslikdagi amaliy materiallar ustida mustaqil ishslash:

- darslikdagi mashq, tanlangan o‘quv topshiriqlarini variantlar asosida musobaqalashib bajarish;
 - darslikdagi amaliy materiallar asosida turli diagramma, jadval, chizmalar tayyorlash;
- bayon va insho rejasini tuzish.

Boshlang‘ich sinflarning ona tili ta’limi bo‘yicha o‘tkaziladigan mustaqil ishlar dars tipiga, dars jarayonining turli bosqichlariga, o‘quv materialining mazmuniga bog‘liq bo‘ladi. Ona tili ta’limidan o‘rganiladigan har bir mavzu xarakteriga muvofiq mustaqil ishlar uyuştiliriladi. Ona tili darslarida o‘tkaziladigan mustaqil ishlarga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- a) mustaqil ishlar pedagogik va psixologik tomondan asoslangan bo‘lishi, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga, bilimiga mos bo‘lishi, o‘quvchilarga tilni o‘zlashtirishga qiziqtirishi lozim;
- b) o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriq bolalarning o‘quv materialini faol idrok etishini ta’minlashi zarur;
- d) mustaqil ish hayotiy bo‘lishi, o‘rganilgan nazariy bilimlarni amaliy tatbiq etishning vositasi bo‘lmog‘i kerak.

“Ona tili” va “O‘qish savodxonligi” darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil fikr yuritishga, og‘zaki va yozma nutqni o‘stirishga, darsliklardan



foydalanishga, ijodiy faollikni o'stirishga katta ahamiyat beriladi. O'quvchilarni hamkorlikka o'qitishda, o'qish davomida o'zlashtirishni yaxshi ko'tarishga erishish lozim, hamda ulardag'i bilimning o'sishi, ya'ni abstrakt tafakkurini rivojlantirishga imkoniyat yaratiladi.

Darsliklarning yangi avlodi o'z tarkibida o'quv predmetining mazmuni hamda o'quvchilar bilish faoliyatining ko'rinishlarini mujassam tarzda ifodalashi lozimligi bilan ajralib turadi. Faqatgina ko'p tarmoqli gipermatnlargina o'quvchi shaxsining rivojlanish jarayonini ta'minlay oladi. Masalan, yangi darsliklarga kiritilgan matnlar bir tomonidan shaxsning til boyligini muntazam oshirish, ikkinchidan, uning moddiy borliq, tabiat, jamiyat haqidagi tasavvurlarini kengaytirishi nazarda tutgan.

Shuningdek, darsliklarning yangi avlodi tarkibiga kiritiladigan mashq va matnlar multimediu yondashuv asosida tanlanib, o'zida yangidan-yangi axborotlarni mujassamlashtirishga erishish talab etiladi. Bunda darsliklarning avlodi mavjud modellarni inventarizatsiyalash va tashnif qilish natijalariga tayanadi.

Pedagogik texnologiyaga asoslangan darsliklarning didaktik modeli o'z tarkibiga ikkita komponentni mujassamlashtirish talab etadi:

a) ta'lif mazmuni;

b) ta'lif beruvchi uslubiy vositalardan foydalanish, ya'ni o'qituvchining kasb mahorati, o'quv predmetining loyihashini ifodalagan xarita va boshqalar. Chunki bizning mintaqaviy xususiyatlarimiz bilan bog'liq holda o'quvchilarda mavjud bo'lgan fiziologik- gigiyenik hamda psixologik xususiyatlar, davlat ta'lif standarti talablaridan kelib chiqqan holda darsliklarda bayon qilinadigan o'quv materialining hajmi, o'quv materiallarini strukturalashtirish muammolari, dasrliklarda ushlubiy vositalarning o'rni, o'quvchini darslik bilan ishlatish yo'llari, bu jarayonda o'quvchining tutgan o'rni kabi muammolar chuqur tadqiq etilishi lozim.

O'quvchilarning darslik, dars materiallari bilan erkin tarzda muloqotga kirishislarini ta'minlash muhim masalalaridan biridir. Chunki darslik materiallari orqali o'quvchiga taqdim etiladigan bilimlar va axborotlarning didaktik substansiylar sifatida ifodalanishini ta'minlash o'quv-biluv jarayonining yaxlitligiga erishish



imkonini beradi. Darsliklarda berilgan matn, mashq, masalalar, illyusstrativ materiallari va jadvallarni tanlashda o‘quv-biluv faoliyatini boshqarish, ya’ni dars jarayoniga rahbarlik qilish darslik materiallari vositasida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari egallagan shaxsiy sifatlarini nazorat qilish mexanizmini ishlab chiqish lozim.

Darslik materiallari ustida mustaqil ishlarni tashkil qilish ham muhimdir. Maktab darsliklarining oldiga qat’iy ilmiy - izchillik, milliy istiqlol g‘oyasini singdirish kabi qator vazifalar qo‘yilmog‘i zarur. Stabillashgan, tajribada o‘zini oqlay olgan darsliklargina o‘quvchilarga har taraflama yetuk bilim bera oladi, o‘quvchilarni mustaqil ishslashga odatlantira oladi.

Boshlang‘ich sinf “Ona tili” darsliklari materiallari o‘zida grammatik kategoriyalarni, so‘z yasash shakllari va usullari, so‘z o‘zgartirish va gap tuzish yo‘llari, orfoepik va orfografik hamda punktuatsion qoidalarni mujassamlashtirgan. Darslikdagi qonun-qoidalar o‘zining mavhumligi, umumiyligi bilan xarakterlanadi.

Demak, o‘quvchining umumiy taraqqiy qilishida ona tili alohida ahamiyatga ega bo‘lib, uning asosiy vazifalaridan biri - bolalarning tafakkurini o‘stirish, ularda kitob ustida ishslash malakalarini takomillashtirishdan iborat.

Maktablarda o‘qituvchilarning ish tajribasini o‘rganish, o‘quvchilarning darslik ustida ishlay olish iqtidorlarini tekshirish shu xulosaga olib kelganki, darslik materiallari o‘qituvchilar tomonidan atroflicha o‘rganilib, murakkabligi jihatdan farqlanmaydi, o‘quvchilarga darslik ustida mustaqil ishlay olish ko‘nikmalari singdirilmaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kitob ustida ishslash malakasini hosil qilmasdan yuqori sinfga ko‘chiriladi. Bu - bir tomonidan, o‘quvchining bundan so‘ng o‘z bilimini oshirish ustida qunt bilan ishslashiga to‘sinqilik qilsa, ikkinchidan, o‘quvchilarni qiynab qo‘yadi. Qisqasi, o‘quvchilar mustaqil bilim olishga poydevor hosil qilmasdan “hayotga yo‘llanma” oladi.

Kishining faoliyati evaziga hosil qilinadigan shaxsiy sifatlari, bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqi uning maktab partasida hosil qilgan shaxsiy sifatlarining (bilim olish,



tevarak-atrofdagi voqelikka to‘g‘ri munosabatda bo‘lish, irodalilik, mustaqillik, tashabbuskorlik va shu kabilar) qonuniy davomidir. Kishining o‘z faoliyati - taraqqiyot asosi. Faoliyatdan tashqarida taraqqiyot bo‘lmaydi. Bu qonuniyat yosh avlod uchun alohida ahamiyatga ega. O‘quvchi mакtabda darslik ustida mustaqil ishlashni qanchalik puxta o‘rgansa, mакtabni bitirib chiqqandan so‘ng o‘z bilimini oshirish uchun shunchalik muvaffaqiyatli ishlay oladi.

Maktab o‘qituvchilaridan ba’zilari ko‘pincha grammatik-orfografik qoidalarni ikki-uch jumla bilan aytib beradi yoki shu qoidalarni bir o‘quvchiga o‘qitish bilan chegaralanadi. Darslarda o‘quvchilar dalillardan xulosalar chiqarishga o‘rgatilmaydi, darslik mashqlarini mustaqil, ongli bajarishga bolalar tayyorlanmaydi. Natijada o‘quvchilar darslikdagi qoidalarni quruq yodlab oladilar. Grammatik qonun-qoida ustida odkaziladigan mashqlar jamoaviy xarakterga ega bo‘lib, o‘qituvchi faqat doskaga chiqarilgan o‘quvchi bilan ishlaydi. Sinf jamoasi esa o‘rtog‘ining doskadagi ishidan nusxa oladi.

Ko‘pchilik mакtablarda ta’limning asosiy nuqsonlaridan biri - o‘quvchilarga ma’lum chegarada bilimlar e’lon qilinsa-da, ammo ularning umumiyligi aqliy taraqqiyotiga yetarli e’tibor bermaslikda, bolalarga mustaqil ishlash malakalarini singdirmaslikdadir. Darslik materiallari ustida o‘quvchilarni mustaqil ishlashga o‘rgatish ikki bosqichda amalga oshiriladi: o‘quvchilarda tashkiliy-texnik malakalami hosil qilish; darslikdagi grammatik qoidalari va mashqlar ustida ishlash yo‘llarini o‘rgatish. Darslik ustida ishlashning tashkiliy-texnik malakalari hosil qilinishi bilan birga, ularga darslik materiallari ustida ishlash yo‘llari ham o‘rgatiladi.

Nutq sofligi va aniqlikka erishish, o‘quvchilar so‘z boyligini oshirish, tafakkurini rivojlantirib, o‘z fikrlarini mustaqil bayon eta olish ko‘nikmalarini hosil qilish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini oldida turgan muhim vazifalardandir. Ayniqsa, ona tili darslarida o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirishda hamda og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishda suhbat metodidan foydalanish yaxshi samara beradi. Darsda yaxshi tashkil etilgan suhbatning ahamiyati shundaki, u yosh kitobxonning o‘qiganlari haqida gaplashish, unga o‘z munosabatini bildirish, o‘z fikrlari bilan o‘rtoqlashish kabi



ehtiyojlarini qondiradi. Bu o‘rinda har kim o‘z holicha, o‘z darajasida qabul qiladi. Suhbatda ishtirok etgan o‘quvchi o‘z fikrlarini muhokama qiladi, uni so‘zlar bilan shakllantiradi. Bu fikrning aniqligi va tiniqligini ta’minlashga olib boradi. Suhbat jarayonida o‘quvchida o‘z fikrini aytish, uning to‘g‘riligiga hamsuhbatlarini ishontirish ehtiyoji tug‘iladi. Fikrini asoslash uchun asar matnidan dalillar topish, misollar keltirish ko‘nikmasi shakllanadi.

Mavzularni o‘rganish darslarida tashkil qilingan suhbatlar o‘quvchini nafaqat ma’lum bilimlar doirashi bilan boyitadi, tarbiyalaydi, balki aqliy faoliyat asoslarini ham o‘rgatadi. Ona tilini o‘rganishning barcha bosqichlarida suhbat keng sig‘imli, o‘zida ko‘p narsani qamrab oladigan metod hisoblanadi. Chunki u xotirani, kuzatuvchanlikni, bilish jarayonini tasavvur va hissiyotni faollashtirishga imkon beradi, tafakkurni rivojlantiradi. Suhbat davomida har bir o‘quvchining individual ishslash sur’ati shakllanadi.

Xususan, darslikdagi amaliy materiallar ustida mustaqil ishslashni jarayonini 1-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligidagi “Fan va texnologiyalar” bo‘limidagi “Yeming yo‘ldoshi” matni yuzasidan quyidagi tarzda suhbat o‘tkaziladi:

1. Nega Oyni Yeming yo‘ldoshi deb ataymiz?
2. Tabiiy yo‘ldoshning sun’iy yo‘ldoshdan farqi nima?
3. “Yo‘ldosh” so‘zining ma’nosini bilasizmi?
4. Yo‘l+dosh, parta+dosh, sinf+dosh so‘zlari nimasi bilan bir-biriga o‘xshaydi?
5. Agar fazogir bo‘lganingizda, qaysi sayyoralarga uchgan bo‘lardingiz?

Shu mavzu uchun quyidagi mustaqil ishlarni o‘tkazish mumkin:

1- mustaqil ish

Oy so‘zini yana qanday ma’nolarda qo‘llaymiz? Misollar keltiring. Oy so‘zini qachon bosh harflar bilan ifodalaymiz?

2- mustaqil ish

Fazogir kasbini egallash uchun qanday sifatlarga ega bo‘lish lozim? Siz shunday sifatlarga egamisiz? Fikringizni misollar bilan izohlang.

Boshlang‘ich sinflarda tashkil qilinadigan mustaqil ishlar hajmi va



murakkabligi jihatdan quyidagi guruhlarga bo‘linadi: 1) tayyorlovchi; 2) yarim mustaqil yoki oraliq; 3) natijasi matnga teng mustaqil ishlar.

1. Tayyorlovchi mustaqil ishlar. Pedagogik psixologiyadan ma’lumki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari vazifalarni mustaqil bajarishga ancha qiynaladilar. Ular berilgan topshiriqlarni taqlid qilish yo‘li bilangina bajara oladilar. Ilg‘or o‘qituvchilar birinchi sinfda dastlabki mustaqil ishlarni quyidagicha tashkil etishadi: avvalo, o‘qituvchi o‘quv qurollariga muomala qilish, o‘quv qurollaridan foydalanish, o‘qish va yozish paytida partada o‘tirish qoidalarini amaliy ravishda ko‘rsatib beradi. O‘quvchilar o‘qituvchiga ergashib, uning qilgan harakatlarini takrorlaydi. Bu ishlar asta-sekin murakkablashtirib boriladi.

O‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida tovushni bo‘g‘inga, bo‘g‘inni so‘zga birlashtiradilar. Gapni so‘zga, so‘zni bo‘g‘inga, tovushlarga ajratadilar. O‘quvchilarga tahlil qilishni o‘rgatish maqsadida ularning diqqati aniq narsalarga tortiladi. O‘qituvchi rasmni osa turib, (rasmda uzum, anor, shaftoli, limon, o‘rik kabi mevalar ifodalangan) o‘quvchilarga bunday topshiriq beradi: Rasmni yaxshilab kuzating. Unda nimalar tasvirlangan? Ulaming nomini eslang. Shirin va nordon mevalarning nomini bildiradigan so‘zлarni guruhlarga ajrating. O‘ylang, yana qaysi mevalar shirin va nordon bo‘ladi?

Bunday topshiriqlarni bajarishda o‘quvchilar chog‘ishtirish usulidan foydalanadilar. Topshiriq bajarilgach, tahlil uchun “olma” so‘zi ajratiladi, bo‘g‘inlarga bo‘linadi. Ikkinchi bo‘g‘indagi “m”, “a” tovushlarining artikulyatsiyasini kuzatish topshiriladi (o‘quvchilar bu tovushlarni ayt turib, partadosh o‘rtoqlarining og‘ziga qaraydi). Suhbat paytida o‘quvchilar “m” tovushini talaffuz qilganda lablarning yumilishi, “a” tovushini aytganda og‘izning ochilishini o‘rganib oladilar. Shunga o‘xhash ishlarni bajarish natijasida o‘quvchilar til dalillarini kuzatish, jamoada ishlay olish malakalarini egallaydi. Bularning bari keyingi murakkabroq vazifalarni bajarishlarida qo‘l keladi.

2. Yarim mustaqil yoki oraliq mustaqil ishlar. Mustaqil ishlarning bu turi yetaklovchi savollar, darslik, tarqatma materiallar, ko‘rsatma qurollardan foydalanish



asosida bajariladi. Masalan, 3-sinfda “So‘z tarkibi” bo‘limidagi “Asos va asosdosh so‘zlar” mavzusini o‘rganishda o‘qituvchi doskaga “Olma” so‘zini yozib, asosdosh so‘zlarni topishni buyuradi. O‘quvchilar “olma”, “olmazor”, “olmali”, “olmasiz” kabi so‘zlarni lug‘atdan topib yozadilar. Bu ishda “olma” so‘zi yetaklovchilik vazifasini o‘taydi.

3- sinfda “Gapda so‘zlarning bog‘lanishi” mavzusi o‘tilganda quyidagicha mustaqil ish o‘tkaziladi:

1. Gapni so‘zlarga ajrating, har bir so‘zning so‘rog‘ini aniqlang. Qor yog‘di. Qor-nima?, yog‘di-nima qildi?

2. Nuqtalar o‘rniga tegishli so‘zni qo‘yib, gapni kengaytirib yozing.
... qor yog‘di. (oppoq, qizil, ko‘m- ko‘k) Oppoq qor yog‘di.

3. Gapni bugun, qalin so‘zlari yordamida kengaytirib yozing. Bugun oppoq, qalin qor yog‘di.

3-4-sinf ona tili darslari takrorlash bilan boshlanadi. Xususan, 3-sinfda “Nutq. Gap. So‘z” mavzusi yuzasidan yarim mustaqil yoki oraliq mustaqil ishlarni tashkil qilishda gap mazmun tomonidan o‘zaro bog‘langan so‘zlar ekanligi yodga tushirilib, o‘quvchilarning gap haqidagi tushunchalarni aniqlash, gapni so‘zlarga bo‘lish, so‘zlardan gap tuzishi va uni yozish ko‘nikmashini o‘sirish maqsadi bilan tafakkur rivojlantiriladi. Mustaqil ish uchun mazmunli rasmlar tanlanadi.

1- mustaqil ish. Rasmga qarab hikoya tuzish.

-Rasmda qayshi xona tasvirlangan?

O‘quvchilarga gap tuzdiriladi.

- Sinf xonashi qanday ko‘rinishga ega ekan?
- O‘quvchilar nima qilyapti?
- O‘quvchilarning kayfiyati qanday?
- Mana shu aytganlarimizning hammashini bir so‘z bilan nima deb ataymiz? (Nutq)

-Nutq necha xil bo‘lar edi? (Og‘zaki va yozma)

- Nutq nimalardan tashkil topadi? (Gaplardan)



-Gaplar-chi? (So‘zlardan)

Demak, biz aytish uchun gaplardan foydalandik. Agar so‘zlarni bir- biriga bog‘lamashdan alohida aytsak, fikrimizni tushuntira olmaymiz (yo‘q). Gap fikri bildiradi. Xabar beradi, so‘z esa narsa nomini, rangini, sonini, harakatni bildiradi.

Demak, fikrimizni bildirish uchun gaplardan foydalanamiz.

2- mustaqil ish.

- O‘qing, matnda nechta gap bor?

O‘quvchilarga o‘qitilib, so‘ngra yozdiriladi.

Biz Vatanimiz mustaqil O‘zbekistonni onamizdek sevamiz. Shuning uchun uni ona-Vatan deb ardoqlaymiz. Ona Vatanimiz go‘zal va bepoyon.

-Matnda nechta gap bor ekan? (uchta).

-Gaplarda nima haqida xabar beriladi? (Ona Vatan haqida) og‘zaki nutqda bir gap boshqasidan qanday ajratiladi? (Gap oxirida ovoz pashayish va biroz to‘xtam bilan, yozma nutqda-chi? (Tinish belgilari: nuqta, undov va so‘roq belgilari bilan)

Matndagi ikkita gapni ko‘chiraladi va tekshiriladi.

3- mustaqil ish og‘zaki bajariladi. O‘qituvchi o‘zi she’rni ifodali o‘qiydi, so‘ngra 2-3 nafar o‘quvchiga o‘qitiladi.

Do‘stlar mening yurtimni,

O‘zbekiston deydilar.

Dong‘i tutgan dunyoni,

Bog‘i bo‘ston deydilar. (Z. Diyor)

- She’rda nechta gap bor ekan? Shu gapda nechta so‘z bor? Qani o‘quvchilar xattaxtaga qarang. Bir nechta so‘zlar berilgan. Shu so‘zlardan gap tuzib bo‘ladimi?

Do‘stimiz, bizning, kitob. Sevamiz, o‘qiyimiz biz kitobni.

3. Natijasi matnga teng mustaqil ishlari. Ta’lim ilgarilagan sari o‘quvchilar yanada murakkabroq vazifalarni bajara oladilar. Shuni hisobga olib, grammatikadan o‘rganiladigan bilimlarga bog‘langan holda ijodiy diktant, hikoya, ish qog‘ozlari, bayon, insho va boshqa ish turlaridan mustaqil ish sifatida foydalanish mumkin.

Bu ishlari hajmining kattaligi, bajarish uchun ko‘p vaqtini talab qilishi bilan



mustaqil ishning oldingi turlaridan farq qiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Shunday qilib, ona tili darslarida o‘tkaziladigan mustaqil ishlarni tizimi o‘quv materialining mazmuni sinf o‘quvchilarining tayyorgarlik darajasi, mustaqil ishni bajarish uchun ketadigan vaqtga ko‘ra aniqlanadi.Ko‘rinadiki, mustaqil ishlarning turi salmoqli bo‘lib, ulardan ona tili ta’limi jarayonida samarali foydalanish yo‘llarini o‘rganish eng muhim metodik masalalardan sanaladi.

Adabiyotlar:

1. Qosimova K., Matchonov S. , G`ulomova X., Yo`ldasheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o`qitish metodikasi. -Toshkent, «Nosir», 2009.
2. G‘afforova T., Nurullayeva Sh. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida mustaqil ishlar va didaktik o‘yinlar.- Qarshi: Nasaf, 2003.
3. Husanboyeva Q., Hazratqulov M., Xolsaidov F. Ona tili va o‘qish savodxonligi metodikasi.- Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2022.- 252 b.
4. Roziqov O., M.Mahmudov, Adizov B., Hamroyev A. Ona tili didaktikasi.- Toshkent: “Yangi asr avlod”, 2005. -388 b.